

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
ERON-AFG‘ON FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Pushtu tilida ravish yasalishi

Tadqiqotda pushtushunos olimlarning mavzuga oid nuqtai nazarlari, pushtu tilida ravish yasalishining usullari o‘rganilgan, hamda ravish yasovchi modellari aniqlanib, ularning mahsuldorlik darajasi belgilandi.

Bajardi: 5220100 – Filologiya (sharq tillari)
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kursi talabasi
Suyunov Jonibek Orif o‘g‘li _____

Ilmiy rahbar: Eron-afg‘on filologiyasi kafedrası
dotsenti, f.f.n. Alimova X. _____

Toshkent-2014

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etiladi

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti
dekani f.f.n., dots. Omonov Q._____

Eron-afgʻon filologiyasi kafedrası mudiri,
f.f.n., dots. Alimova X._____

« ____ » _____ 2014 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Fakultet: Sharq filologiyasi va falsafa Kafedra: Eron-afg‘on filologiyasi O‘quv yili: 2013-2014	Bakalavriat talabasi: Suyunov Jonibek Orif o‘g‘li Ilmiy rahbar: fil.fan.n., dots. Alimova X.
--	---

Pushtu tilida ravish yasalishi mavzusidagi BMI

Annotatsiyasi

O‘zbekistonda pushtu tili va adabiyotiga qiziqish ancha yillik tarixga ega. Pushtu tilida ravish so‘z turkumi, xususan ravish yasalishi, eng kam o‘rganilgan va eng chigal mavzulardan biri hisoblanadi.

Hozirgi pushtu tili grammatikasi, xususan ravish so‘z turkumi, uning yasalishi va yasalish usullari hali afg‘on tilshunoslari tomonidan ham, Afg‘onistondan tashqari mamlakatlardagi tilshunoslar tomonidan ham mukammal o‘rganilmagan. Ot, sifat va fe‘l so‘z turkumlarining yasalishi borasida ko‘zga ko‘rinarli bir qator ishlar qilingan, ammo ravish yasalishi chuqur o‘rganilmagan. Shu kungacha mamlakatimiz va rus afg‘onshunoslari tomonidan pushtu tili grammatikasining turli masalalari bo‘yicha turli ilmiy ishlar bajarilganiga qaramasdan, bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo‘yicha o‘zbek afg‘onshunosligida alohida ilmiy-tadqiqot ishi olib borilmagan. Shu jihatdan ushbu bitiruv malakaviy ishi pushtu tili grammatikasida maxsus o‘rganilmagan so‘z turkumi – ravish so‘z turkumining yasalish usullarini aniqlashga qaratilganligi bilan dolzarbdir.

Ilmiy rahbar:

fil.fan.n., dots. Alimova X.

Bakalavriat talabasi:

Suyunov Jonibek Orif o‘g‘li

Mundarija

Kirish

I bob. Pushtu tilida ravish

- 1.1. Ravishlarning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi maʼno va funksiyalari...8
- 1.2. Pushtu tilida ravishning maʼno turlari.....10
- 1.3. Ravish darajalari.....13
- 1.4. Pushtu tiliga forsi-ye dariy va arab tillaridan oʻzlashgan ravishlar.....16

II bob. Pushtu tilida ravish yasalishi va usullari

- 2.1. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan ravishlar.....19
 - 2.1.1. Suffikslar orqali ravish yasalishi.....20
 - 2.1.2. Prefikslar orqali ravish yasalishi.....21
- 2.2. Ravish yasalishining reduplikatsiya (takror) usuli.....23
- 2.3. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan ravishlar.....27
- 2.4. Old va ort koʻmakchilar bilan yasalgan ravishlar.....34
- 2.5. Ravish yasalishining semantik (konversiya) usuli.....49

Xulosa50

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

KIRISH

O'sib kelayotgan avlod taqdiriga hech kim befarq qaray olmaydi. Bunda Oliy o'quv yurtlarining ahamiyati kattadir. Yoshlarni qay usulda o'qitish, ularni tarbiyalash, mustaqil mamlakatning yetuk mutaxassisleri bo'lishiga qayg'urush har birimizning muqaddas burchimizdir. Bunday oliy va o'rta maxsus tizimi saviyasini jahon asoslari darajasiga yetkazish, xalq xo'jaligida mutaxassislikka bo'lgan talab va ehtiyojlarni ilmiy tahlil asosida aniqlash, xorijiy mamlakatlar tarbiyasidan oqilona foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridandir. Ilm-ziyo salohiyati, bu - xalqning, vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir¹.

O'rta Osiyo xalqlari ham pushtu tilining rivojiga, uning taraqqiy etishida o'z hissalarini qo'shishgan. Hozirgi kunda ham pushtu tilini o'rganishda o'zbekistonlik afg'onshunos olimlarning mavqei alohida o'rin tutadi.

Mana shu haqiqatlarni nazarda tutib, yurtboshimiz I.A. Karimov o'z nutqlarida shunday deb ta'kidlaydilar: "Hozirgi paytda xorijiy va sharq tillarini o'rganish va o'rgatishga katta ahamiyat berilmoqda.Bugun jahon hamjamiyatididan o'ziga munosib o'rin egallashga intiliyayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarini mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir"².

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonda pushtu tili va adabiyotiga qiziqish ancha yillik tarixga ega. Pushtu tilida ravish so'z turkumi, xususan ravish yasalishi, eng kam o'rganilgan va eng chigal mavzulardan biri hisoblanadi.

Hozirgi pushtu tili grammatikasi, xususan ravish so'z turkumi, uning yasalishi va yasaliş usullari hali afg'on tilshunoslari tomonidan ham, Afg'onistondan tashqari mamlakatlardagi tilshunoslar tomonidan ham mukammal o'rganilmagan. Ot, sifat va fe'l so'z turkumlarining yasaliş borasida ko'zga ko'rinarli bir qator ishlar qilingan, ammo ravish yasaliş chuqur o'rganilmagan. Shu kungacha mamlakatimiz va rus afg'onshunoslari tomonidan pushtu tili grammatikasining

¹ Karimov I.A. Ilm ziyo salohiyati nutq boyligi nutqi// Ma'rifat gazetasi. – 1993.

² Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. - B. 8-9.

turli masalalari bo'yicha turli ilmiy ishlar bajarilganiga qaramasdan, bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha o'zbek afg'onshunosligida alohida ilmiy-tadqiqot ishi olib borilmagan. Shu jihatdan ushbu bitiruv malakaviy ishi pushtu tili grammatikasida maxsus o'rganilmagan so'z turkumi – ravish so'z turkumining yasallish usullarini aniqlashga qaratilganligi bilan dolzarbdir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Pushtu tili grammatikasini o'rganish XX asrning 40-yillaridan boshlab, aniqrog'i 1936-yilda mamlakat shohi Zohirshohning pushtu tilini davlat tili deb e'lon qilishi bilan boshlandi. Bu davrgacha bo'lgan tilga oid tadqiqotlar poetikaga bag'ishlangan ilmiy-badiiy asarlarda va izohli lug'atlarning kirish qismida uchraydi. Pushtu tili grammatikasi to'liq ravishda o'rganilmaganligi uchun ba'zi o'rinlarda ixtilofli yoki qarama qarshi bo'lgan fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Biz mavzu doirasidan chiqmaslik uchun faqatgina pushtu tilida qisman ravish so'z turkumi, jumladan, ravish yasallish usullari haqida batafsil to'xtalib o'tishga harakat qilamiz. Lekin ko'plab Yevropa va rus afg'onshunos olimlarining grammatik ocherklarida bu haqda bir muncha to'xtalib o'tilgan.

Afg'onistondan tashqarida pushtu tili Rossiya olimlari K.A. Лебедев, З.М. Калинина, Р.Р. Сикоев, А.Л. Грюнберг va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ingliz olimlari Raverti, Elfenston, Morgenstern tomonidan ham pushtu tili o'rganilgan. O'zbek olimlaridan esa A.Mannonov kabi olimlar tomonidan bir qancha pushtu tiliga oid ishlar amalga oshirilgan. Lekin ularning asarlarida ham ravish haqida ma'lumotlar umumiy tarzda, ya'ni elementar grammatika sathida tadqiq qilingan va ravish haqidagi ma'lumotlar pushtu tili o'rganuvchilarini qisqacha ravish bilan tanishtirishga mo'ljallangan.

Pushtu tilida ravish yasallishi maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan. Biroq rus olimi K.A. Лебедевning "Грамматика языка пушту" (Москва, 1956) kitobida ravish haqida umumiy ma'lumotlar berilgan, lekin ravish yasallishi haqida to'xtalib o'tilmagan. Old va ort ko'makchilar mavzusida 𑂔 [pə] old ko'makchisi ravish yasashini aytib o'tgan.

Pokistonlik Xiyol Buxoriy “صرف و نحو” nomli grammatika kitobida payt ravishlarining yasalishi haqida bir muncha to‘xtalib o‘tgan.

Tadqiqotning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishidan ko‘zlangan asosiy maqsad pushtu tilida ravish yasalishi usullarini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot davomida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- 1) pushtushunos olimlarning mavzuga oid nuqtai nazarlari o‘rganildi;
- 2) pushtu tilida ravish yasalishining usullari o‘rganildi;
- 3) pushtu tilida ravish yasalishi misollar bilan yoritib berildi;
- 4) ravish yasovchi modellari aniqlandi;
- 5) ularning mahsuldorlik darajasi belgilandi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Tadqiqotda bir qator pushtushunos olimlar K.A. Лебедев, З.М. Калинина, Р.Р. Сикоев, А.Л. Грюнберг, А. Mannonov va o‘zbek tilshunoslaridan S. Fuzailov, A. Hojiyev asarlaridan, shuningdek, professor A. Berdialiyevning “O‘zbek tilida so‘z yasovchi affikslar” (Toshkent, 1970) va T. Asadovning “So‘z turkumlari tizimida ravish” (Toshkent, 2009) nomzodlik dissertatsiyalari, S. Sayidrahimovanning “So‘z turkumlari tizimida ravishning o‘rni” monografiyasidan (O‘sh, 2005) foydalanildi.

Tadqiqot manbalari. Tadqiqotga manba sifatida pushtu tilidagi badiiy asarlar: Amir Afg‘on Purning “خاوره” (كابل. ۱۳۲۲ ه. ش.) asari, Humoyun Hotakning “د رښتینی بوټیه” (Kobul, 2009), Nasir Ahmad Ahmadiyning “د مور مینه” (Kobul, 2006) hikoyalar to‘plami olindi. To‘plangan kartotekalar soni 300 dan ortiq. Faktologik materiallarni taqdim etishda pushtucha misollar pushtu alifbosi va tushunarli bo‘lishi uchun xalqaro transkripsiyada berilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblandi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi pushtu tili grammatikasining bir qismi bo‘lib, ravish yasalish usullarini o‘rganish va mahsuldor modellarni aniqlash, ilmiy jihatlarini va muammolarini yoritishga mo‘ljallangan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat. Har bir bob o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda ichki qismlarga bo'lingan. Ishning umumiy hajmi 53 sahifani tashkil etadi.

Birinchi bob "Pushtu tilida ravish" deb nomlanib, unda ravish haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari, ma'no turlari, ravish daraja kategoriyasi haqida aytib o'tilgan.

"Pushtu tilida ravish yasalishi va usullari" nomli bobda pushtu tilida ravishning yasalishi va usullari o'rganilgan.

BIRINCHI BOB

PUSHTU TILIDA RAVISH

Ravish pushtu tili grammatikasida mustaqil soʻz turkumi sifatida kiritilgan. Pushtu tilida ham ravish harakat va holatning belgisini bildirib, oʻzgarmaslik xususiyatiga ega boʻlgan mustaqil soʻz turkumidir. Ravish *qanday? qachon? qayerda? qayerdan? qayerga? qancha? nega? qay darajada?* kabi soʻroqlarga javob boʻladi. Ravish koʻpincha feʼlga bogʻlanib, ish-harakatning qay holatda bajarilishini, paytini, oʻrnini, daraja-miqdori, sababini, maqsadini bildiradi³.

1.1. Ravishlarning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi maʼno va funksiyalari

Pushtu tili grammatikasida ravish قيد [qayd] grammatik termini bilan ataladi. Afgʻonistonda maktab oʻquvchilari uchun chiqarilgan 8-sinf darslik kitobida ravishga quyidagicha taʼrif berilgan:

قيد هغه کلمه ده چې پر فعل، صفت او بل قيد باندې تاثیر وکي لکه په لاندې جمله کې:

- سدو په خدا راغی.

په لوړه جمله کې (په خدا) قيد دی ځکه چې د راغی پر فعل يې تاثیر کړی دی.

دده کور په هغه ډیر جگ تعمیر کې دی.

په لوړه جمله کې (ډیر) قيد دی ځکه چې د جگ پر صفت يې تاثیر کړی دی.

- زمرک ډیر ژر راغی.

په لوړه جمله کې (ډیر) قيد دی ځکه چې د ژر پر قيد يې چې د (راغی) د فعل د پاره قيد دی، تاثیر

کړی دی⁴.

“Ravish - feʼl, sifat va boshqa bir ravishga taʼsir qiladigan soʻz turkumi.

Quyidagi gaplarda koʻrishimiz mumkin:

Sadu kulimsirab keldi. Ushbu gapda په خدا [pə xandā] *kulimsirab* ravish, chunki feʼlga taʼsir qilayapti. *Zmarak juda tez keldi.* Ushbu gapda ډیر [dʼer] ravish, chunki feʼlni aniqlab kelayotgan ژر [jər] ravishini darajalab kelayapti”.

³ Лебедев К. А. Грамматика языка пушту. – Москва, 1956. – С.153-154.

⁴ صرف و نحو. خیال بخاري پېښور.

Pushtu tilida ravishlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Biror soʻz bilan bogʻlanganda, oʻz shaklini oʻzgartirmaydi, yaʼni soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalar olmaydi: زمړک ژر راغی. *Zmarak tez keldi.*

2. Oʻziga xos yasaliş tizimiga ega: كمتړانه [kamtarāna] *kamtarona*, راتلونكى كال [rātəlunkay kāl] *kelasi yil.*

3. Harakat belgisini qisman boʻlsa-da darajalab koʻrsata oladi: ژر [jər] *tez*, ژر [jər tər jəra] *tezroq*, ډیر ژر [dʼer jər] *juda tez*

4. Gap tarkibida koʻpincha hol boʻlib keladi:

دوى اوس دوستانه خبري كوي. (خاوره. (د لنډو كيسو مجموعه). امين افغان پور. كابل. ۱۳۲۲ هـ.

ش.)

[duy os dustāna xabari kavi]

Ular hozir doʻstona suhbatlashyapti.

Ushbu gapda dustāna ravish, chunki suhbatlashmoq feʼlini aniqlab kelmoqda.

5. Ot-kesim: [zmā məlgray hara vradz dēta day] زما ملگری هره ورځ دلته دی. *Doʻstim har kuni shu yerdadir.*

6. Baʼzan otga bogʻlanib, aniqlovchi vazifasida keladi. Oʻzi aniqlab kelayotgan soʻz (ot) ni rodiga qarab ravish ham oʻzgaradi. Ravish aniqlovchi vazifasida kelganda, har doim oʻzi aniqlab kelayotgan soʻz oldidan keladi.

د بارانونو په موسم كې له هغه ځايه څخه د ويالې په شان ډيرې وابه بهيدې.

[də bārānono pə mavsum ke lə hagə dzāya tsxa də viyāle pə shān dʼere obə bahede]

yomgʻirlar mavsumida bu yerlardan koʻp suv oqar edi.

هره ورځ زلمی ډیر کتاب ولولي.

[hara vradz Zalmay dʼer kitab vulvali]

Har kuni Zalmay koʻp kitob oʻqiydi.

1.2. Pushtu tilida ravishning ma'no turlari

Taniqli rus afg'onshunos olimi K.A. Lebedev o'zining "Грамматика языка пушту" kitobida ravish mavzusiga to'xtalib o'tgan. U ravishlarni ma'nosiga ko'ra 5 turga ajratgan⁵.

1.2.1. Payt ravishlari - د وخت قیدونه

Harakatning bajarilish paytini bildirgan ravishlar payt ravishlari deyiladi. كله [kəla] qachon? qachongacha? qachondan? so'roqlariga javob bo'ladi. K.A. Lebedev payt ravishlariga quyidagi ravishlarni kiritgan:

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
kecha	[parun]	پرون
hozir	[os]	اوس
ertalab	[sabā]	سبا
keyin	[pas]	پس
o'tgan kun	[varma vradz]	ورمه ورځ
bugun	[nən]	نن
tunda	[dəshpe]	د شپې
barvaqt	[vaxti]	وختي
ilgari, avval	[pəxvā]	پخوا
o'z vaqtida	[pər vaxt]	پروخت
har doim	[təl]	تل
o'sha mahalda, o'shanda	[hāla]	هاله
kech	[nā vaxta]	ناوخته

Misol:

هلن او آني تل پاتي دوستان شول. (د رښتيني بوتېه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[Helin aw āniy təl pāti dustān shvəl]

Helin va Aniy har doim do'st bo'ib qolishdi.

ورمه ورځ يوه ميرمن د خريد لپاره د هغه دوکان ته راغله.

⁵ Лебедев К. А. Грамматика языка пушту. – Москва, 1956. – С.153-154.

[varma vradz yava mermən də xarid lə pāra də hag‘ə dukān ta rāg‘la]

O‘tgan kun bir ayol xarid qilish uchun uning do‘koniga kirdi.

اوس هغه کار کوي.

[os hag‘ə kār kavi]

U hozir ishlayapti.

1.2.2. O‘rin ravishlari - د خای قیدونه

Harakatning bajarilish o‘rni bildirgan ravishlarga o‘rin ravishlari deyiladi.

[chiri] qayer? qayerda? qayerdan? qayerga? so‘roqlariga javob bo‘ladi. چیري؟

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	Pushtuchasi
yuqorida	[porta]	پورته
u yerda	[delta]	دلته
bu yerda	[halta]	هلتته
ichkarida	[dənəna]	دننه
yaqin	[nəjde]	نږدې
uzoq	[liri]	لیري
orqaga	[berta]	بیرته
pastda	[kshəta]	کښته

خو هلتته څوک هم نه لیدل کیدل خي هغه ترې پوښتنه کړې وای. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه).

امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[xo halta tsok ham na lidəl kedəl che hag‘ə tre poxtəna kəge vāy]

U yerda u so‘raydigan biror kishi ko‘rinmas edi.

خو په ډیرې آرامۍ سره یې خپل سر تاو کړ او پورته یې وکتل. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه).

امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[xo pə d‘ere ārāməy sara ye xpəl sar tāv kəř aw porta ye vukatəl]

Ammo u juda xotirjam boshini burdi va yuqoriga qaradi.

1.2.3. Sabab ravishlari - د سبب قید

Harakatning bajarilish maqsadini bildirgan ravishlarga sabab ravishlari

deyiladi. [vale] nima uchun? nega? nimaga? so‘roqlariga javob bo‘ladi. ولي

Ularning soni ko‘p emas va ko‘pincha o‘zlarida sabab ma’nosi bilan birga ish-harakatning sifat belgisi hamda maqsad ma’nolarini jamlab namoyon qiladi.

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
atay, ataylab	[pə poha sara]	په پوهه سره
jo‘rttaga	[amdān]	عمداً
qasddan	[qasdān]	قصداً

Misol:

نجلی په پوهه سره ډیر ژر حرکت کاوه.

[ənjələy pə poha sara d’er jər harakat kāvə]

Qizcha ataylab juda tez harakat qildi.

1.2.4. Holat ravishlari- د حالت قيد

Harakatning qay tarzda bajarilishini bildirgan ravishlar holat ravishlari deyiladi. [tsəŋgə] خنګه؟ qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
tez	[jər]	ژر
to‘satdan	[nātsāpa]	ناخپه
sekin	[vro]	ورو
birdan, to‘satdan	[nābabəra]	نابېره
darhol, darrov	[samdəlāsa]	سمدلاسه
o‘xshab, singari, kabi	[ləka]	لکه
shunday	[dāsi]	داسي

ناخپه هغه یو نری اوږد ځناور ولید چې پر ځمکې څښیده.

[nātsāpa hag‘ə yav naray ugd dzanāvar vulid che pər dzməke tsəxedə]

To ‘satdan u ingichka va uzun jonivorni yerda sudralib yurganini ko ‘rdi.

د اوبو بهیر سمدلاسه ودرید. (خاوره). (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ هـ.

(ش.)

[də obo bahir samdəlāsa vudarid]

Suvning oqishi birdaniga to ‘xtadi.

ناڅاپه يو لوی کب په لامبو وهلو سره هغې ته نږدې شو. (د رېښتینې بوټپه. همایون هوتک. کابل.

(۲۰۰۹ م)

To 'satdan bir katta baliq suzub suzub uning yoniga yaqinlashdi.

2.5. Miqdor ravishlari- د مقدار قيد

Harakatning miqdor darajasini bildirgan ravishlar miqdor-daraja ravishlari deyiladi. Miqdor ravishlari [tso] خو؟, [tsomra] خومره؟, [tsona] خونه؟ *qancha?* so'rog'iga javob bo'ladi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
juda, ko'p	[d'er]	ډير
juda	[xvarā]	خورا
juda	[bexi]	بيخي
butunlay	[bilkul]	بالکل
umuman	[had'o]	هډو

د پوهنې وزير زياته كړه، چې دا مركز به په كابل او ولايتونو كې د درسي وسايلو د جوړيدو او عملي زده كړو په برخه كې ډيره مرسته وكړي.

[də pohane vazir ziyāta kəra che dā markaz bə pə kābul aw vilāyatuno ke də darsi vasilo də joředo av ilmiy zdakřo pə barxa ke d'era mərīsta vukři]

Ta'lim vazirligi, bu markaz Kobul va viloyatlarda o'quv qurollarini ishlab chiqarish va amaliy o'qitish borasida ko'p yordam beradi, deb ta'kidladi.

1.3. Ravish darajalari

Ravishlar sifat singari belgini darajalab ko'rsatish darajalab ko'rsatish xususiyatiga ega, lekin barcha ravishlarga bu xususiyat xos emas. Pushtu tilida ravishlar quyidagi daraja ma'nolarini beruvchi guruhlariga bo'linadi.

- oddiy daraja
- qiyosiy daraja
- ortima daraja

1.3.1. Pushtu tilida ravishning oddiy darajasi

Ravishning oddiy darajasida morfologik ko'rsatkich nol morfema va belgi normal holatda bo'ladi ya'ni ravishning o'zgarmagan oddiy shakli.

Masalan:

وروسته بيا په سرعت سره له هغه ځايه لاړه. (خاوره. (د لنډو كيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[vrusta biyā pə sur'at sara lə hag'ə dzāya lāra]

Shundan so 'ng u bu joydan tez ketdi.

په آسانی سره

نيالگي په آسانی سره غوڅ شو. (د رښتيني بوټيه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[niyālgay pə āsānəy sara g'uts shu]

Nihol oson (osonlikcha) sindi.

1.3.2. Pushtu tilida ravishning qiyosiy darajasi

Qiyosiy daraja o'zbek tilida –roq qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Pushtu tilida bu qo'shimchani [tər] تر predlogi ifodalaydi.

د هغې حالت ژرتر ژره ښه شو او د راحتۍ احساس يې وکړ. (خاوره. (د لنډو كيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[də hag'e hālat jər tər jəra sha shu aw də rāhatəy ehsās ye vukəʃ]

Uning ahvoli tezroq yaxshilandi va rohatni his qildi.

1.3.3. Pushtu tilida ravishning orttirma darajasi

Pushtu tilida ravishning orttirma darajasi quyidagi miqdor ravishlari bilan yasaladi:

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
juda, ko'p	[d'er]	ډير
umuman	[had'o]	هډو
juda	[bexi]	بيخي
butunlay	[bilkul]	بالکل
juda	[xvarā]	خورا

Miqdor ravishlari yasama ravishlar bilan birga qo‘llansa, rod kategoriyasiga e‘tibor beriladi. Agar yasama ravish otdan yasalgan bo‘lsa, otning rodiga qarab, *دیر* [d’er] ham birlikda vositali (косвенный) shaklda ishlatiladi. Buning asosiy sababi so‘zlarning pushtu tilida old va ort ko‘makchilar bilan ishlatilishidadir. Bu pushtu tilining o‘ziga xosligidir.

Rod	Birlik	Birlikdagi vositali (косвенный) shakl	Ko‘plik	Ko‘plikdagi vositali (косвенный) shakl
Muzakkar	دیر	دیر	دیر	دیرو
Muannas	دیره	دیری	دیری	دیرو

هغه په دیري حیرانتیا سره وکتل چې نیالگی چا غوڅ کړی دی.

[hag‘ə pə d’ere hayrāntiyā sara vukatəl che niyālgay chā g‘uts kəray day]

U niholnining singaniga juda hayron qolib qaradi.

Ushbu gapda orttirma darajani ifogalagan *دیر* [d’er] birlikda vositali (косвенный) shaklda turibdi va ravish yasashda ishlatilgan *حیرانتیا* [hayrāntiyā] so‘zi ot so‘z turkumi va muannas rodga taalluqlidir, shuning uchun *دیر* [d’er] muannas rod birlikdagi vositali kelishik shakli *دیره* [d’ere] shakli ishlatilgan.

بونبه خپله ستونزه ورته وويله او ښاپيری دیر ژر په اوبو کې ننوته. (د رښتیني بوتبه. همایون

هوټک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[buṭba xpəla stunza vərta vuvayəla aw shaperəy d’er jər pə obo ke nənavata]

O‘tinchi tashvishini unga aytdi va suv parisi juda tez suvga sho‘ng‘idi.

هلکي په دیر دار او وارخطایی سره چیغې وهلې او خلک یې د خپل مرسته لپاره رابلل: خلکو! زر

شی! لیوه دی. مرسته راسره وکړی! ومې ژغوری! (د رښتیني بوتبه. همایون هوټک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[haliki pə d’er d’ār aw vārxaṭāye sara cheg‘e vahəle aw xalk ye də xpəl mrəsta

ləpāra rābaləl: xaləko! Zər shəy! levə day. Mrəsta rāsara vukrəy! vumi jg‘orəy]

Bola juda xavotirlangancha va qo‘rqib dod-faryod soldi va xalqni o‘zi uchun yordamga chaqirdi: Ey xaloyiq! Tez bo‘ling! Bo‘ri. Menga yordam bering! Qutqaring!

په خورا تیزی سره

ناخاپه یو ستوری په خورا تیزی سره د هغې له څنگه تیر شو. (د رښتینۍ بوټبه. همایون هوتک.

کابل. ۲۰۰۹ م)

[nātsāpa yav storay pə xvarā tezəy sara də hag'e lə tsanga ter shu]

To 'satdan bir yulduz juda tez uning yonidan o 'tib ketdi.

په خورا زیار سره

هره ورځ به هغه په خورا زیار سره خپل دروند او تیره تیر په خپله اوږو وچاوه او د ځنگله په لور

به رهي شو. (د رښتینۍ بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[hara vradz bə hag'ə pə xvarā ziyār sara xpəl drund aw tera tabar pə xpəla ugo
vachāvē aw də dzangala pə lor bə rahi shu]

*Har kuni u o 'zining og 'ir va o 'tkir boltasini yelkasiga juda qiynalib tashlar
va o 'rmon tomon yo 'l olar edi.*

په ډېر احتیاط سره

وروسته بیا په ډېر احتیاط سره له غره څخه رابښکته شوه چې د جام اوبه تویي نشي. (د رښتینۍ

بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[vrusta biyā pə d'er extiyāt sara lə g'ərə tsxa rāshketa shəva che də jān obə
toye nashi]

*Shundan so 'ng juda ehtiyotkorona idishning suvi to 'kilmasligi uchun tog 'dan
tushdi.*

په ډېر شوق سره

هغه په ډېر شوق سره غوښتل چې خپل تېرګی و آزمایي. (د رښتینۍ بوټبه. همایون هوتک. کابل.

۲۰۰۹ م)

[hag'ə pə d'er shavq sara g'ushtəl che xpəl tabargay vāzmāyi]

U juda shavqlanib boltasini sinab ko 'rishni xohladi.

په خورا پام سره

جورج په خورا پام سره د ښامار خوا ته وکتل. (د رښتینۍ بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[Jorj pə xvarā pām sara də shāmār xvā ta vukatəl]

Jorj ajdarho tomonga juda diqqat bilan qaradi.

1.4. Pushtu tilida arab va forsi-ye dariy tillaridan o‘zlashgan ravishlar

Har qanday tilning chet tillardan o‘zlashtirish yo‘li bilan boyishi doimo ro‘y beradigan o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, mazkur mintaqadagi uning u yoki bu tarixiy taraqqiyot davrida ro‘y beradigan tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Pushtu tilida arab va forsi-ye dariy tillaridan o‘zlashmalar miqdor jihatdan ancha ustundir. O‘zlashmalar qatorida ravishlar ham mavjud.

Forsi-ye dariy tilidan o‘zlashgan ravishlar

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
gohida, goh-goh	[gāhi] [gāh gāh]	گاهي، گاه گاه
hamisha	[hamisha]	همیشه
asta-sekin	[āhista]	آهسته
kam	[kam]	کم
to‘g‘ri	[rāsān]	راساً

آس يې په طبيلي کې وتاړه او راساً خپل باغ ته لار تر څو له نيالگي څخه کتنه وکړي.

[ās ye pə tabile ke vutārə av rāsān xpəl bāg‘ ta lār tər tso lə niyālgi tsxa katəna vukři]

U otni otxonaga bog‘ladi va niholni ko‘zdan kechirish uchun to‘g‘ri bog‘ tomonga yo‘l oldi.

Arab tilidan o‘zlashgan ravishlar

Pushtu tiliga arabiy o‘zlashmalarning kirib kelishi XIV asrda kuchaydi va XIX asrning oxirigacha davom etdi. Arabiy o‘zlashmalar pushtu tiliga, odatda, kitobiy yo‘l bilan kirib kelgan, ammo, afg‘onlarning arablar bilan bevosita muloqoti natijasida og‘zaki nutq orqali kirib kelgan o‘zlashmalar ham mavjud. Arabiy o‘zlashmalar odatda o‘z imlo shaklini saqlab qolgan.

Tanvin-fatxaga tugovchi soʻzlar. Bu arabiy oʻzlashmalar oxirida tanvin-fatxaga tugallanadi. $\bar{a}$ [ān] suffiksi arab tilidagi tushum kelishigi qoʻshimchasi boʻlgan. Bu suffiks arab tilida, shuningdek, ravish koʻrsatkichi ham hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy pushtu tilida arab tilidan oʻzlashgan ravishlar kam ishlatilmoqda.

oʻzbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
taqriban	[taqribān]	تقریباً
uzil-kesil, qatiyan	[qatan]	قطعاً
toʻla toʻliq, batamom	[kāmilān]	کاملاً
rasman	[rasmān]	رسماً
bilaturib, atayin, joʻrttaga	[shuʻurān]	شعوراً

Mazkur tadqiqot bobiga qisqa xulosalar oʻrnida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Pushtu tilida ravish mustaqil soʻz turkumidir.
2. Ravishlarni semantik jihatdan oʻrin, payt, daraja-miqdor, sabab-maqsad, holat ravishlariga ajratiladi.
3. Ravishlar gapda asosan hol vazifasini bajaradi.
4. Pushtu tilida ravish daraja koʻrsatish xususiyatiga ega.

IKKINCHI BOB

PUSHTU TILIDA RAVISH YASALISHI VA USULLARI

Pushtu tilida ravish boshqa tillarda bo'lgani kabi affiksatsiya, reduplikatsiya, kompozitsiya usuli hamda old va ort ko'makchilar bilan yasaladi. Semantik usul bilan ham ravish yasaladi. Boshqa so'z turkumlaridan tamoman ajralib turuvchi asliy ravishlar soni unchalik ko'p emas. Pushtu tilida ravishlarni o'zbek tilidagidek tub va yasama ravishlarga bo'lsak bo'ladi. Hech qanday yasovchi qo'shimchalarsiz qo'llanadigan ravishlar tub ravishlar deyiladi. Tub ravishlar soni ko'p emas.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
bu yerda	[dɔlta]	دلته
u yerda	[halta]	هلتە
har doim	[təl]	تل
kecha	[parun]	پرون

Masalan:

وروسته له هغې الیسا تل په دې سوچ کې وه چې څه رنگه وشي کړای د لمر وړانګې د نیا کوټې ته

یوسي.

[vurusta lə hag'e Alisa təl pə de such ke va che tsə ranga vushi kəṛāy də lmar vṛāngi də niyā koṭe ta yusi]

Shundan so'ng Alisa har doim quyosh nurlarini buvisining xonasiga qanday qilib olib borishni o'yladi.

Pushtu tilida yasama ravishlar so'z yasalish asosiga yasovchi qo'shimchalar qo'shish, so'z yasalishining kompozitsiya, reduplikatsiya usuli hamda old va ort ko'makchilarlar bilan yasaladi. Yasashga asos qism ot, sifat, olmosh va ba'zan ravish bo'lishi mumkin.

2.1. Ravish yasalishining affiksatsiya usuli

So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida so'z yasash ko'pchilik tillar uchun asosiy vositadir. Hozirgi pushtu tilida mahsuldorlik bo'yicha affiksatsiya birinchi

o‘rinda turadi. Lekin ravish yasallshida bu usul pushtu tilida kammahsuldir. Ravish yasovchi affikslar soni unchalik ko‘p emas. Affikslar so‘z o‘zagiga joylashishi nuqtai nazaridan prefiks, postfiks va infikslarga ajratiladi. Prefiks – so‘z oldidan, postfikslar – so‘zdan keyin va infikslar so‘zning ichida joylashib, yangi so‘z yasashga xizmat qiladi. Pushtu tilida ravishlarning yasallshida infikslar uchramaydi.

2.1.1. Suffikslar orqali ravish yasallshi

Pushtu tilida ravish yasovchi suffikslar soni ko‘p emas. So‘z yasovchi suffikslar pushtu tilida mustaqil ma’noga ega emas.

انه [-āna] qo‘shimchasi ot va sifatlariga qo‘shilib ravish yasaydi. Modeli quyidagicha: sifat + انه = ravish

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
boxodirlarcha	[baxādirāna]	بهادرانه
axmoqona	[ablahāna]	ابلهانه
mustaqil, ozod, erkin	[ozādāna]	ازادانه
mardlarcha	[mardāna]	مردانه
o‘zicha	[xudsarāna]	خودسرانه
zo‘rlab, majburiy ravishda	[jābirāna]	جابرانه

د پاکستان صدر اعظم نواز شریف د تیر کال په پسرلي کې واک ته ورسید او د خپل دولت د بهرنۍ پالیسۍ د علان پر مهال یې وویل چې له افغانستان سره به صادقانه همکاري کوي.

[də pākistān sadr a’zam Navoz Sharif də ter kāl pə psarli ke vāk ta vurasid aw də xpəl davlat də bahranəy pālisəy də elon pər mahal ye vuvoyəl che lə Afg‘ānistān sara bə sadiqāna hamkāri kavi]

Pokiston bosh vaziri Navoz Sharif o‘tgan yil bahorda hukumatga yetkazdi va davlatning tashqi siyosatini e’lon qilish chog‘ida Afg‘oniston bilan do‘stona hamkorlik qilishini aytib o‘tdi.

Ot + انه = ravish modeli. Bu modeli kammahsul hisoblanadi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
tabiblarcha	[tabibāna]	طیبانه
do'stona	[do'stāna]	دوستانه

Yasama sifat + انه = ravish modeli.

Bu model bilan ham ravishlar kam yasaladi. Quyidagi ravishlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
sabrsizlik bilan	[betābāna]	بې تابانه
shafqatsizlarcha	[berahmāna]	بې رحمانه
ishonqiramay	[nābāvarāna]	ناباورانه

2.1.2. Pushtu tilida prefikslar orqali ravish yasalishi

Pushtu tilida prefikslar orqali ravish yasalishi kammahsul so'z yasash usuli hisoblanadi. Asosan prefikslar yordamida ot va sifatlardan ravish yasaladi. Umuman pushtu tilida prefiksli so'zlar soni ko'p emas. Pushtu tilida prefikslar orqali ravish hosil qilishda asosan eroniy tillardan o'zlashgan va juda kam miqdorda arab tilidan o'zlashgan prefikslar ishlatiladi. Bu prefikslar arab va forsdariy tillaridan pushtu tiliga o'zlashgan so'zlardan ravish yasaydi. Ba'zi holatlarda bu prefikslar pushtucha so'zlarga ham qo'shilishi mumkun. Ravish yasovchi prefikslar pushtu tilida mustaqil ma'noga ega emas. Quyida mazkur prefikslarga to'xtalib o'tamiz.

2.1.2.1. بي - [be-] prefiksi.

Bu prefiks orqali yasalgan ravishlar ham harakatning biror xususiyat yoki belgisining mavjud emasligini ko'rsatadi. Odatda otlarga qo'shib, ravish yasaydi. Bu prefiks qo'shilganda so'z oxirida qisqa [a] o'tovushi orttiriladi va bu yozuvda ham o'z aksini topadi. Agar so'z ^{h} – [-ā], ^{h} – [-ə] ga tugasa, unda qisqa ^{h} – [-a] qo'shilmaydi. Agar so'z oxiri muannas rodni bildiruvchi ^{h} – [-a] ga tugasa, ^{h} – [-a] harfi ^{h} – [-e] ga o'zgaradi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
kech	[bevaxta]	بې وخته ، بې موقع
extiyotsiz	[beixtiyāta]	بې اختياطه
o'rinsiz, noo'rin	[bedzāya]	بې ځايه
asta-sekin	[betsanda]	بې ځنده
kuchsiz	[bezora]	بې زوره
yolg'iz	[bekasa]	بيکسه
bechora, kambag'al	[bevazla]	بې وزله
hayosiz, uyatsiz	[bebāka]	بې باکه
uyqusiz	[bexoba]	بې خوبه
jonsiz	[besā]	بې سا
uysiz	[bekāra]	بې کاره
kuchsiz, holsiz	[bevasa]	بې وسه
beparvo, e'tiborsiz	[beparvā]	بې پروا
kamchiliksiz, aybsiz	[beayba]	بې عيبه
ishonqiramay	[bebāvarəy]	بې باوري
ixtiyorsiz	[beixtiyāra]	بې اختياره

يوه ورځ هغه له ځانه سره تصميم ونيوه چې د خپلې ساعتيرۍ په خاطر د کلي خلک وغولوي او هغوی بې ځايه سرگردانه کړي. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[yava vradz hag'ə lə dzāna sara tasmim vuniva che də xpəle sāaterəy pə xātir də kəli xalk vug'avalavi aw hag'uy be dzāya sargardāna kəri]

Bir kuni u hiylasi bilan qishloq aholisini aldash va o'rinsiz ovora qilishga o'zicha qaror qildi.

دا ځل سړی په غوسه شو او له خپلې لور څخه يې وپوښتل: ولي ته ما بې ځايه وېروي او همدا

وايي چې څوک تا ويني. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[dā dzal saray pə g'usa shu aw lə xpəle lor tsxa ye vupoxətəl: vale tə mā bedzāya veravi aw hamdā vāye che tsok tā veni]

Bu safar kishi g'azablandi va qizidan so'radi: "Sen nimaga meni o'rinsiz qo'rqityapsan va seni kimdir ko'ryapti deb aytayapsan."

2.1.2.2. نا – [-nā] prefiksi.

Bu prefiks odatda sifatlarga, ba'zan esa otlarga qo'shilib ravish yasaydi. Shuningdek, bu prefiks bilan yasalgan ko'plab ravishlar so'z oxirida o – [-a] suffiksini qabul qiladi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
kech	[nāvaxta]	ناوخته
e'tiborsiz	[nāpām]	ناپام
keraksiz	[nākāra]	ناکاره
umidsiz	[nāumida]	نالامیده
nohaq	[nāhaqa]	ناحقه
baxtsiz	[nāmurada]	نامراد
umidsiz	[nāumidāna]	نالامیده
kamdan kam	[nābāb, nābāba]	نابابه \ ناباب
to'satdan, qo'qqisdan, birdan	[nāpexa]	ناپیینه

Misollar:

مونږ ناوخته راغلو. (خاوره). (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[mung nāvaxta rāg'əlu]

Biz kech keldik.

ناپیینه یو ستوری په خورا تیزی سره د هغې له څنگه تیر شو. (د رښتینۍ بوټیه. همایون هوتک.

کابل. ۲۰۰۹ م)

[nātsāpa yav storay pə xvarā tezəy sara də hag'e lə tsanga ter shu]

To 'satdan bir yulduz juda uning yonidan tez o'tib ketdi.

2.2. Ravish yasalishining reduplikatsiya usuli

Bu usulda so'zlarni takrorlash orqali ravish yasaladi. Bu so'zlarni takrorlash orqali ravish yasalishida so'zlar aynan takrorlanadi yoki so'z o'rtasiga old ko'makchilar qo'yiladi. Ayni bir leksemani takrorlab yangi leksema (ravish) hosil qilish ravishlarda ancha taraqqiy etgan. Takror so'zning ravishga aylanishidagi

asosiy belgi ularda yuz beradigan leksik, grammatik o'zgarishlardir. Mana shu o'zgarishlar ravish bo'lmagan so'zning o'z turkumidan cheklanib, boshqa turkum (ravish) tabiatiga mos kelishi bilan tugallanadi. Takrorlash asosida ravishlashgan so'zlar (xirmon-xirmon, mashina-mashina) dastlabki yakka holda (shaklda) narsa buyum atovchi ot bo'lib, takrorlangach miqdoriy belgi ifodalovchi so'zga aylanadi. Bu ifodalangan ma'noda miqdor ham kam (zarra-zarra, tiyin-tiyin) ham ko'p (etak-etak, qop-qop, mashina-mashina) bo'lishi mumkun.

Takroriy so'zlarning hammasi ham ravish yasamaydi⁶. Faqat yangi ma'no yasalsagina, yasama so'z hisoblanadi. Tez-tez, katta-katta kabi takroriy so'zlar ravish yasamaydi. Bu so'zlarda ma'no kuchaytirilgan xolos.

Quyidagi mustaqil so'z turkumlari takrorlanadi. Takrorlanadigan so'zlarni 2 ga bo'lsak bo'ladi:

- a) aynan takrorlanadi
- b) so'z o'rtasiga predloglar qo'yish orqali takrorlanadi

2.2.1. Quyidagi mustaqil so'zturkumlari aynan takrorlanadi.

Ot+ot modeli orqali ravish yasalishi pushtu tilida kammahsul hisoblanadi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
tengma teng	[nim nim]	نیم نیم
tomchilab tomchilab	[tsātsiki tsātsiki]	څاڅکي څاڅکي
bosqichma bosqich	[přāv přāv]	پړاو پړاو
tikilib tikilib	[dzir dzir]	ځیر ځیر

Misol:

د بارانونو په موسم کې له هغه ځايه څخه د ويالي په شان ډيري اوبه بهيدي خو اوس چې موسم وچ و نو اوبه يواځې څاڅکي څاڅکي او ورو ورو بهيدي.

[də bārānono pə mavsum ke lə hag'ə dzāya tsxa də viyāle pə shān d'ere obə bahedi xo os che mavsum vuch vu no obə yavādzi tsātsiki tsātsiki aw vro vro bahide]

⁶ Mannonov A., Quronbekov A. Pushtu tili leksikalogiyasi. – T.: TDSHI, 2012.

Yomg'irlar mavsumida bu yerlardan ko'p suv oqar edi, ammo hozir qurg'oqchilik mavsumi bo'lganligi sababli suv faqat tomchilab tomchilab va sekin-sekin oqyapti

هغو د اوبو څپو ته چې پورته کيږي ځير ځير کتل او مسافر يې هير کړ. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[hag'o də obo tsapo ta che porta kede tser tser katəl aw musəfər ye her kəř]

U suvning ko'tarilishiga tikilib qarab turdi va musofirni unutdi.

So'roq olmoshining takrorlanishi orqali ham yangi ravish yasaladi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
ba'zan ba'zan	[kəla kəla]	کله کله

د نجلۍ په ياد شول چې د هغې نيا هم کله کله همداسې رنځ ايسته. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[Də ənʃələy pə yād shvəl che də hag'ə nyā ham kəla kəla hamdase randz ista]

Buvisining ba'zan shunday a'zob chekishi qizchaning yodida edi.

2.2.2. Takroriy ravish yasashning yana bir yo'li so'z o'rtasiga **په** [pə] predlogini qo'yish orqali so'zlar takrorlanadi. Taniqli rus afg'onshunos olimi K.A Lebedev o'zining “Грамматика языка пушту” kitobida old va ort ko'makchilar mavzusini yoritishda bu usulni aytib o'tgan⁷. So'zlarni takrorlashda so'zlar o'zgarishga uchramaydi, aynan takrorlanadi. Bu usul ancha sermahsul usul hisoblanadi.

2.2.2.1. ot + په + ot = ravish modeli

Ot so'z turkumi takrorlanadi. Asosan holat ravishlari yasaladi. Bu model mahsuldor hisoblanadi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
yildan yilga, yil sayin	[kāl pə kāl]	کال په کال
oydan oyga	[myāsht pə myāsht]	مياشت په مياشت ، ماه په ماه
kundan kunga	[vradz pə vradz]	ورځ په ورځ

⁷ Лебедев К.А. Грамматика языка пушту.- Москва, 1956.

izma iz	[qadam pə qadam]	قدم په قدم
yonma-yon	[ařx pə ařx]	اړخ په اړخ
soatma soat	[sā'at pə sā'at]	ساعت په ساعت
avlodma avlod, naslma nasl	[pəxt pə pəxt]	پښت په پښت
avlodma avlod	[plār pə plār]	پلار په پلار
qavatma qavat	[puř pə puř]	پور په پور
uyma uy	[kor pə kor]	کور په کور
zinama zina	[peřəy pə peřəy]	پیری په پیری
vagonma vagon	[tesən pə tesən]	تیسن په تیسن
avlodma avlod	[plār pə plār]	پلار په پلار
yuzma yuz	[məx pə məx]	مخ په مخ
og'izma og'iz	[xula pə xula]	خوله په خوله
boshqa boshqa	[jins pə jins]	جنس په جنس
yonma yon	[d'ad'ə pə d'ad'ə]	ډډه په ډډه
qatorma qator	[tsang pə tsang]	څنگ په څنگ
qo'lma qo'l	[lās pə lās]	لاس په لاس

Misollar:

کله مي چې په کار لاسي پوري کړ نو قدم په قدم موضوع سختیدله او له نویو نویو ستونځو سره مخامخ کیدلم.

[kəla mi che pə kār lāsi porī kəř no qadam pə qadam mavzu saxtedəla aw lə nəviyo nəviyo stundzo sara məxā məx kedələm]

Men ishga qo'l urganimda, mavzular qadamma qadam qiyinlashardi va yangi yangi qiyinchiliklarga duch keldim.

نيالگي او بوتې ورځ په ورځ لويېږي. (خاوره). (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل.

(۱۳۲۲ ه. ش.)

[niyālgay aw buṭi vradz pə vradz loyegi]

Nihol va butalar kundan kunga o'sayapti.

2.2.2.2. Son soʻz turkumi takrorlanadi

oʻzbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
yakka, yolgʻiz	[yav pə yav]	يو په يو
birga	[dva pə dva]	دوه په دوه

يو په يو راغی.

[yav pə yav ragʻəy]

U yolgʻiz keldi.

حمید او محمود دوه په دوه ناست وو.

[Hamid av Mahmud dva pə dva nāst vu]

Hamid va Mahmud birga oʻtirgan edi.

2.2.2.3. Baʼzan soʻz oʻrtasiga په [pə] predlogidan tashqari نا [nā], پر [pər]ni qoʻyish orqali ravish yasaladi. Soʻzlar takrorlanganda oʻzgarishga uchramaydi.

[tər] old koʻmakchisi soʻz oʻrtasiga qoʻyilib takrorlanadi. Bunda [tər] predlogidan keyin kelgan soʻzga qisqa [a] qoʻshiladi.

oʻzbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
noiloj, ixtiyorsiz ravishda	[chār nā chār]	چار نا چار
xohlamasdan, beixtiyor	[zřə nā zřə]	زړه نا زړه
vaqti-vaqti bilan	[vaxt pər vaxt]	وخت پر وخت
goh-goh	[kəla nā kəla]	کله نا کله
umrbod, abadiy	[təl tər təla]	تل تر تله
tinmay, toʻxtovsiz	[dam tər dama]	دم تر دمه

2.3. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan ravishlar

Bu usul bilan qoʻshma ravishlar yasaladi. Toʻla maʼnoli boʻlaklarni qoʻshish orqali yangi soʻzlarning yasalishi hozirgi zamon pushtu tili lugʻat tarkibi boyishining sarmahsul yoʻlidir. Bu “qoʻshma” deb ataladigan soʻzlar pushtu tilida oʻzining juda koʻp turlari bilan ajralib turadi va oʻz tarkibida turli soʻz turkumlarini oʻz ichiga oladi: ot, sifat, olmoshlarning bazi bir turlari, son va feʼl.

Qo'shma so'zning yasalishi ikkita mustaqil lug'aviy birlikning bittaga birlashuvi sintaktik-morfologik jarayondir.

Pushtu tilida qo'shma so'zlarning bo'laklari yo bir-biri bilan bevosita, yoki bog'lovchi unsurlar bilan bog'lanadi. Ravish yasalishida so'z bo'laklari (tarkibiy qismlari) bevosita bog'lanadi⁸.

Qo'shma so'zlar o'zining sintaktik-semantik belgilariga ko'ra ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Aniqlovchi yoki determinativ qo'shma so'zlar, ularda bo'laklardan biri (pushtu tilida, odatda, birinchisi) ikkinchisini aniqlaydi, to'ldiradi yoki bo'ysundiradi;
2. Kopulyativ yoki teng bog'langan qo'shma so'zlar, ularda semantik munosabatda barcha bo'laklari teng huquqli.

Pushtu tilida miqdor jihatdan determinativ qo'shma so'zlar aksariyatni tashkil etadi. Ular, shuningdek, yangi qo'shma so'zlarni yasashdagi eng sermahsul usulidir.

Qo'shma so'z bo'laklari (tarkibiy qismlari) sifatida turli so'z turkumlari: otlar, sonlar, fe'l negizlari, olmoshlarning ba'zi turlari qatnashadi.

Kopulyativ qo'shma so'zlarda uning bo'laklari (tarkibiy qismlari) semantik teng huquqli: ulardan hech biri ikkinchisini aniqlamaydi ham, to'ldirmaydi ham. Morfologik nuqtai nazardan ikkinchisi bosh bo'lak hisoblanadi, negaki qo'shma so'zning rodi aynan o'sha bilan belgilanadi, demak so'zning barcha grammatik shakli o'sha bilan bog'liqdir.

Kopulyativ qo'shma so'zlarning bo'laklari yo bir-biri bilan bevosita qo'shiladi, yoki (u, ā) bog'lovchi unsuri yordamida qo'shiladi⁹.

Kopulyativ qo'shma so'zlar ba'zan ravish ham yasaydi.

ot + bog'lovchi qo'shimchasi ā+ot modeli ba'zida ravish yasaydi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
ro'parasida, yuzma-yuz	məxā məx	مخامخ

⁸ Mannonov A., Quronbekov A. Pushtu tili leksikalogiyasi. – T.: TDSHI, 2012. - B. 46-47.

⁹ Ko'rsatilgan asar.- B. 46-47

turli-tuman, turlicha	rangā rang	رنگا رنگ
-----------------------	------------	----------

Determinativ qo'shma so'zlarda ravish yasalishi ancha taraqqiy etgan. Bu usul bilan yasalgan ravishlar ajratib yoziladi. Hozirgi paytda determinativ qo'shma so'zlar orasida mahsuldorligiga ko'ra, "olmosh (belgilash va bo'lishsizlik olmoshi) + ot = ravish modeli" mahsuldor hisoblanadi.

Ular quyidagicha yasaladi:

2.3.1. هېڭ [hets] olmoshi bilan yasalgan ravishlar.

O'zbek tiliga *hech* bo'lishsizlik olmoshiga to'g'ri keladi. Asosan ot va so'roq olmoshlariga qo'shilib ravish yasaydi. Modeli *hech+ot=ravish* *hech+so'roq olmoshlari=ravish*

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
hech qachon	[hets vaxt]	هېڭ وخت
hech qayerga	[hets cheri, hets cherta]	هېڭ چيري ، هی چيرته
hech qachon	[hets kəla]	هېڭ کله

Misollar:

زه به هېڭ کله سگریټ ونه څکوم. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[zə bə hets kəla səgreṭ wu na ts kavəm]

Men hech qachon sigaret chekmayman.

که چيري تاسو له ما سره مرسته ونه کړی زه به هېڅکله خپل مقصد ته چي له ستورو سره لوبي کول دي ، ونه رسيږم. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[ka cheri tāsu lə mā sara mrəsta vu na kərəy zə bə hetskəla xpəl maqsadta che lə storo sara lobe kavəl di, vu na rasegəm]

Agar sen menga yordam bermasang, men hech qachon maqsadimga yetolmayman.

هغه له مرغانو سره داسي خبري کولي چي گواکي له خپلو ماشومانو سره خبري کوي او هېڅکله هغو ته ضرر نه رسوي. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[hag‘ə lə murg‘āno sara dāsi xabare kavəle che go‘yoki lə xpəlo māshumāno sara xabari kavi aw hetskəla hag‘o ta zarar na rasavi]

U qushlar bilan xuddi o‘z bolalari bilan gaplashgandek gaplashar edi va hech qachon ularga zarar yetkazmasdi

د نجلۍ نیا دکورپه بل اړخ یعنی د شمال خوا ته ژوند کاوه چې هیڅکله هلته د لمر وړانګې نه ورتلې. (خاوره). (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[də ənjələy niyā də kor pə bəl ād‘x ya‘ni də shmāl xvā ta jvand kāva che hets kəla halta də lmar vřange na vartəle]

Qizchani buvisi uyni boshqa tarafida, ya‘ni shimoliy tomonida yashaganligi sababli hech qachon u yerga quyosh nurlari yetib bormasdi.

هیڅکله دا له هیږه ونه باسي. همیشه رښتیا ووسه او میرنی اوسه ! (خاوره). (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[hetskəla dā lə hera vu na bāse. hamesha rəxtiyā vuosa aw meřanay osa!]

Hech qachon unutma. Har doim rost so‘yla va mard bo‘l!

2.3.2. Belgilash olmoshlari bilan yasalgan ravishlar

هر [har], تول [tol], گرد [gərd] olmoshi bilan payt ravishlari yasaladi va ravishlar yasashda rod kategoriyasiga e‘tibor beriladi. هر [har] olmoshidan keyin kelgan so‘z muannas rodga bo‘lsa, har olmoshiga qisqa • [a] qo‘shiladi. Asosan ot so‘z turkumiga qo‘shilib ravish yasaydi. Modeli quyidagicha: har+ot=ravish

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
har kuni	[hara vradz]	هره ورځ
har doim	[har vaxt]	هر وخت
har kecha	[hara shpa]	هره شپه
har tong	[hara sabā]	هره سبا
har oy	[hara myāsht]	هره میاشت
har hafta	[hara hafta]	هره هفته
har soniya	[hara sāniya]	هره ثانیه
har safar, har gal	[har dzal]	هر ځل
har daqiqa	[hara daqiqa]	هره دقیقه

har gal	[har vār]	هر وار
har joyda	[hard zāy]	هر خای
har qayerga, qayerda	[har cheri]	هر چیرې
har tong	[har sahār]	هر سهار
kun bo‘yi	[ʈola vradz]	توله ورځ
tun bo‘yi, butun tun	[gərda shpa]	گرده شپه
har soniya	[hara sāniya]	هره ثانيه
har laxza	[hara sheba]	هره شيبه

Masalan:

هغه له دې کبله چې په پردۍ میرمن هره ورځ د هغه لاس نیوه او څه یې پکې لیکل، سترې شوې

و.ه.

[hag‘ə lə de kabala che yava pradəy mermən hara vradz də hag‘ə lās nivə av tsə ye pəke likəl, staře shəve va]

U notanish xonim har kuni qo‘lidan ushlab bir nimalar yozganligi sababli charchadi.

ورځ [vradz] kun so‘zi ot so‘z turkumiga oid bo‘lib; muannas rodde bo‘lgani uchun هر [har] olmoshiga qisqa o [a] qo‘shilgan.

بوټبه به هره ورځ کوم کار تر سره کاوه؟ (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل.

(۱۳۲۲ ه. ش.)

[buṭba bə hara vradz kum kār tər sara kāvə]

O‘tinchi har kuni qanday ish qilardi?

نجلی په ډېرې نرمۍ سره وویل: پلاره! یو څوک شته چې تا او مونږ هره شيبه ویني او زموږ عملونه څاري او هغه څښتن تعالی دی. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[ənjələy pə d‘ere narməy sara vuvoyəl: Plāra! Yav tsok shta che tā aw mung hara sheba veni aw amaluna tsāri aw hag‘ə tsxtən ta‘āla day]

Qizcha juda sekin dedi: “Otajon! Siz va bizni har lahza ko‘rib, bizning amallarimizni kuzatadigan bir zot bor. U Ollohdir.

هره شيبه له دې ډنډ څخه ستوري تر هغې پورې چې زه وېده شوې نه يم، زما خوا ته ځلیري.

هغه وویل: هو! هو! هغوی هره شپه ددې شنو وینو د پاسه ځلیري. (د رښتیني بوبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[hara shpa lə de d'and' tsxa stori tər hag'e pore che zə vida shve na yem, zmā xvā ta dzalegi]

Har tunda yulduzlar men tomon porlaganda, uyg'oq bo'lmayman. U dedi: Ha! Ha! Ular har tunda ko'mko'k o'tlar ustiga nur taratadi.

هر ځل چې دا کښتۍ آتن ته راتله، اووه پنځې او اووه نارینه به یې له ځانه سره وړل. (د رښتیني بوبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[har dzal dā kshtəy ātən ta rātla, ovə shedze aw ovə nāriya bə ye lə dzāna sara vřəl]

Har safar bu kema Yunonga kelsa, 7 ta ayol va 7 ta erkakni o'zi bilan olib ketardi.

هغه به هر چیري درېده او د آسمان ستورو په لور به یې کتلې او حیرانه به ورته پاتې شوه. (د رښتیني بوبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[hag'ə bə har chere dareda aw də āsmān storo pə lor bə ye katəle aw hayrāna bə vərta pāte shva]

U har joyga to'xtadi va yulduzlar yo'liga tikilib hayron qoldi.

مونږ مجبوره شوي یو چې هر سهار د هغه د خوراک لپاره دوه پسونه هغه ته واستوو. (د رښتیني بوبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[mung majbura shve yu che har sahār də hag'ə xvarāk ləpāra dva psuna hag'ə ta vāstavu]

Har tongda biz uning ovqatlanishi uchun 2 ta qo'yni unga olib borishga majburmiz.

2.3.3. Bir یو [yav] soni bilan yasalgan ravishlar.

Bunda هر [har] olmoshi kabi bir یو [yav] soni ham o'zi birikib kelgan so'zning rodiga qarab o'zgaradi. Agar ot muzakkar rodga bo'lsa, bir soni o'zgarmaydi. Aksincha ot muannas rodga taluqli bo'lsa, bir soni qisqa [a] o'ni qabul qiladi.

Modeli quyidagicha: bir soni + ot = ravish

bir kuni	[yava vradz]	یوه ورځ
bir on, bir laxza	[yava sheba]	یوه شپه

bir marta	[yav vār]	يو وار
-----------	-----------	--------

Masalan:

کله چې هغه هلته ورسید نو د خبل ږوند او بې وزلي ملگري سره یوه شپبه کیناست. (خاوره. د) لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[kəla che hag'ə halta vurasid no də xpəl řund aw bevazli məlgri sara yava sheba kināst]

U u yerga yetganda ko 'r va bechora do 'sti bilan bir laxza o 'tirdi.

جام یو وار په الماسو بدل شو. (د رښتینۍ بوټه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[jām yav vār pə olmāso badəl shu]

Cho 'mich bir gal olmosga o 'zgardi.

2.3.4. Sifat + ot = ravish modeli.

Bu model orqali ham determinativ qo'shma ravish yasaladi. Sifat o'zi bog'lanib kelgan otning rodiga qarab o'zgaradi. Bu model ham payt ravishlari yasashda sermahsul hisoblanadi.

Masalan: تیر کال [ter kāl o'tgan yil payt ravishida kāl] so'zi muzakkar rodga tegishli bo'lgani uchun تیر [ter] sifati o'zgarmagan. Agar ot muannas roddagi ot bo'lsa, sifat qisqa • [a] unlisini qabul qiladi. تیره هفته [tera hafta] o'tgan hafta payt ravishida هفته [hafta] so'zi muannas roddagi ot bo'lgani sababli تیر [ter] sifati sifat qisqa • [a] unlisini qabul qilgan.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
o'tgan yil	[ter kāl]	تیر کال
o'tgan hafta	[tera hafta]	تیره هفته
o'tgan kun	[tera vradz]	تیره ورځ
o'tgan oy	[tera miyāsht]	تیره میاشت
ikki yil burun	[vəřəm kāl]	وړم کال
ikki kun oldin	[vəřma vradz]	وړمه ورځ
ikki hafta burun	[vəřma hafta]	وړمه هفته
ikki oy burun	[vəřma miyāsht]	وړمه میاشت
joriy yil, bu yilda	[səg kāl]	سږ کال

2.3.5. Hozirgi zamon sifatdoshi + ot = ravish.

Bu model orqali payt ravishlari yasaladi. Bu modelda ham rod kategoriyasiga e'tibor beriladi. راتلونکی [rātəlunkay] hozirgi zamon sifatdoshi fe'lidan yasalgan. Hozirgi zamon sifatdoshi fe'l infinitivining ko'rsatkichi bo'lgan ل [əl] ni tashlab yuborish va hosil bo'lgan negizga muzakkar rod uchun ونکی [unkay], muannas rod uchun ونکی va ko'plik uchun ونکی [unki] ni qo'shish orqali yasaladi. Hozirgi zamon sifatdoshi bilan payt ma'nosini beruvchi otlarga va hafta kunlariga qo'shilib payt ravishlari yasaydi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
kelasi hafta	[rātəlunke hafta]	راتلونکې هفته
kelasi yil	[rātəlunkay kāl]	راتلونکې کال
kelasi oy	[rātəlunke miyāsht]	راتلونکې میاشت

2.3.6. بل [bəl] + ot = ravish modeli.

Bu model orqali ham asosan payt ravishlari yasaladi. Bu yerda بل [bəl] ning ikkinchi ma'nosi ishlatiladi. Birinchi ma'nosi boshqa, ikkinchi ma'nosi keyingi. بل [bəl] o'zi birikib kelgan so'zning rodiga qarab o'zgaradi. Muzakkar roddagi ot bilan birikib kelsa, o'zgarmaydi. Aksincha ot muannas rodga oid bo'lsa, qisqa ۰ [a] unlisini qabul qiladi. Bu o'zgarishni quyidagi misollarda kuzatishimiz mumkun.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
keyingi kun	[bəla vradz]	بله ورځ
keyingi hafta	[bəla hafta]	بله هفته
keyingi yil	[bəl kāl]	بل کال

Misollar:

بله ورځ کله چې د چونگېني بچي د مار له بچي سره د بوټو په منځ کې مخامخ شو، له هغه څخه يې ځان ليري کړ. (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[bəla vradz kəla che də chungashe bache də mār bache sara də boṭo pə myadz ke məxāməx shu, lə hag'ə tsxa ye dzān lire kəř]

Keyingi kun qurbaqaning bolasi ilonning bolasi bilan butalar orasida uchrashganda, undan o'zini olib qochdi.

2.4. Old va ort ko‘makchilar bilan yasalgan ravishlar

Old va ort ko‘makchilar bilan ham pushtu tilida ravish yasaladi. Ravish yasashda kelishiklarga e‘tibor beriladi. Pushtu tilida asosan 2 ta kelishik bor. Hozirgi kundagi afg‘onshunoslarning fikricha chaqiruv kelishigi ham bor bo‘lib, ba‘zi bir grammatikalarda uchinchi kelishik sifatida kiritilmoqda.

Bosh kelishik so‘zning o‘zgarmagan, ya‘ni so‘zning boshlang‘ich shakli hisoblanadi.

Vositali kelishik (косвенный падеж) alohida olinib ishlatilganda, faqatgina o‘tgan zamonda o‘timli fe‘l va eganing ifodalanishida ishlatiladi. Qolgan barcha holatlarda vositali kelishik old va ort ko‘makchilar bilan ishlatiladi.

a) ko‘plik shaklini hosil qilishda ko‘plik hosil qiluvchi qo‘shimchalar bilan yasaluvchi otlarning birlikdagi vositali kelishik shakli o‘zgarmaydi.

Masalan kitob so‘zining birlikda vositali kelishik shakli o‘zgarmaydi, chunki uning ko‘plik shakli ونه [una] ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi.

b) o‘z ko‘plik shaklini fleksiya (so‘z oxirini o‘zgartirish orqali ko‘plik hosil qilish) orqali hosil qiluvchi otlarning birlikdagi vositali kelishik shakli aynan ularning ko‘plik shakliga mos keladi.

2.4.1. د [də], تر [tər], په [pə], پر [pər] old ko‘makchilari bilan ravishlar yasaladi. د [də], تر [tər] old ko‘makchilari bilan ravish yasalganda, ot birlikda vositali (косвенный) shaklda turadi. د [də], تر [tər] پر [pər] old ko‘makchilar bilan yasalgan ravishlar soni miqdor jihatdan ko‘p emas.

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
oldinga	[tər məxa]	تر مخه
oxirigacha	[tər kəla]	تر كله
o‘rtada	[tər miyandz]	تر مینځه ترمنځ
kunda	[də vradzi]	دورځي
tunda	[də shpe]	د شپې
orqada	[tər shā]	ترشا
o‘z vaqtida	[pər vaxt]	پر وخت

2.4.2. په [pə] predlogi ot, sifatlari oldidan kelib ravish yasaydi. Bu old ko‘makchi bilan ravish yasalganda so‘z oxirida o [a] unlisi qo‘shiladi. So‘z oxiri [ā] bilan tugasa qisqa –a qo‘shilmaydi. Undosh bilan tugasa qisqa –a qo‘shiladi.

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
yashirincha	[pə pəta]	په پټه
asta-sekin	[pə dzanda]	په خنده
osonlikcha	[pə asāna]	په اسانه
o‘zicha	[pə xpəla]	په خپله
yig‘lamsirab	[pə jarā]	په ژرا
kulimsirab	[pə xandā]	په خندا
rasmiy	[pə rasmiyat]	په رسمیت
uyg‘oq	[pə vexe]	په وېښه
ochiq oydin	[pə bəd’a]	په بډه
tinch, sokin	[pə ārāma]	په آرامه
shoshib, apil-tapil	[pə beŕa]	په بیره
qattiq, mustahkam	[pə klaka]	په کلکه
yoddan	[pə yāda]	په یاده
ochiq-oydin	[pə d’āga]	په ډاگه
piyoda	[pə pxo]	په پښو
kuchli	[pə zora]	په زوره
tez-tez	[pə dav dav]	په دو دو
shosha pisha, yugurib yugurib	[pə mōnda mōnda]	په منډه منډه
o‘g‘rincha	[pə g‘lā g‘lā]	په غلا غلا

Misollar:

تشیرا په زوره نارې کړې: همدلته انتظار وباسه. مونږ مرستې ته اړتیا لرو. (د رښتینۍ بوټیه.

همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[Teshero pə zora nāŕe kəŕe: hamdēlta intzār vubāsa. Mung mrəste ta aŕtiyā laru]

Teshero kuchli na'ra tortdi: Shu yerda kutib tur. Biz yordamga muhtojmiz.

خو هغي له خانه سره په کله ژمنه کړې وه چې هيڅکله به نا امیده نشي او د خپلو هڅوڅخه به لاس وانخلي. (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[xo hag'e lə dzāna sara pə klaka jaməna kəre va che hetskəla bə nāumida
nashi aw də xpəlo hatso tsxa bə lās vānaxli]

*Ammo o 'ziga hech qachon noumid bo 'lmaslik va o 'z harakatidan
to 'xtamaslikka qattiq va 'da berdi.*

نجلۍ په ژړا هغه ته وويل: اي باتوره ځوانه! ته نه پوهيږې چې د خطر په منځ کې قرار لري.
(خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[ənjələy pə ʃarā hag'ə ta vuvoyəl: Ey bātura dzavāna! tə na pohege che də
xatar pə myadz ke qarār lare]

*Qizcha unga yig 'lamsirab dedi: Ey botir yigit! Sen xatar o 'rtasida
turganingni tushunmayapsan.*

ما ټوله شپه دلته په وېښه تيره کړه چې د اوبو د ننوتو مخه ونيسم. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه).
امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[mā ʈola shpa dəlta pə vexa tera kəra che də obo də nənavato məxa vunisəm]

Men suv kirishining oldini olish uchun, butun tunni shu yerda uxlamasdan,
uyqusiz o'tkazdim.

د خطر زنگ ووهل شو. خلک له خپلو بيلونو سره په منډه منډه راغلل او سوري ډېر ژر بند شو. (د
رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[də xatar zang vuvahəl shu. Xalk lə xpəlo beluno sara pə mənd'a mənd'a
rāg'ləl aw soray d'er ʃər band shu]

*Xavf ovoza bo 'ldi. Xalq o 'z bellari bilan shosha-pisha kelishdi va teshikni
berkitishdi.*

2.4.3. Bundan tashqari [pə] په old va [d'aul] ډول [toga] توگه [sara] سره ort
ko'makchilarining o'rtasiga so'z qo'yib ham ravish yasaladi. Bu sermahsul usul
hisoblanadi. Ko'makchilar o'rtasidagi so'z birlikda vositali (косвенный) shaklda
ishlatiladi. Otlarning birlikdagi vositali (косвенный) shakli otlarning ko'plik
shaklini ishlatish orqali yasaladi.

سره + ot (abstrak ot) + په modelida ot ي [i] tovushiga tugasa, uning ko‘plikdagi shakli ishlatiladi, chunki ot old va ort ko‘makchilar orasida косвенный shaklda turadi. Old va ort ko‘makchilar o‘rtasida sifat, ot so‘z turkumi ishlatiladi. ي [i] tovushiga tugagan otlar abstrak ma‘noni bildirsa, muannas rodga tegishli bo‘ladi. Bunday otlarning ko‘plik shakli ي [i] harfini ى [əy] diftongiga o‘zgartirish orqali hosil qilinadi. Masalan: سختى - سختى qiyinchilik-qiyinchiliklar, lekin tarjima qilinganda birlikda tarjima qilinadi

Agar ot undosh harf va cho‘ziq ۱ [ā] unlisiga tugasa, uning birlikdagi shakli ishlatiladi va hech qanday o‘zgarishga uchramaydi.

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
ehtiyokorona, ehtiyotlik bilan	[pə ixtiyāt sara]	په اختياط سره
zavqlanib	[pə xvarā shavq sara]	په خورا شوق سره
tezda	[pə tezəy sara]	په تيزۍ سره
shoshilib, shoshgancha	[pə talvār sara]	په تلوار سره
g‘ichirlab	[pə karanjahār sara]	په کرنجهار سره
xursand holda	[pə xushāla sara]	په خوشالی سره
mehribonlarcha	[pə mehribānəy sara]	په مهربانی سره
uyalib	[pə vārxatāyəy]	په وارخطایی سره
oista, astagina	[pə āhistagəy sara]	په آهستگی سره
birga, birgalashib	[pə gada sara]	په گده سره
oson, osonlikcha	[pə āsanəy sara]	په آسانی سره
o‘g‘rincha	[pə g‘əlā sara]	په غلا سره
zimdan	[pə g‘aur sara]	په غور سره
g‘azab bilan, jaxlanib	[pə qahr sara]	په قهر سره
rostdan, chindan	[pə rəxtiyā sara]	په رښتیا سره
tikilib	[pə dzer sara]	په ځیر سره
tezda, tez	[pə xvarā tezəy sara]	په خورا تيزۍ سره
yig‘lamsirab	[pə jařā sara]	په ژړا سره

kulimsirab	[pə xandā sara]	په خدا سره
rostdan	[pə rəshtiyā sara]	په رښتيا سره
kelishgan holda	[pə ittifā sara]	په اتفاق سره
tez, tezda	[pə chābukəy sara]	په چابکي سره
eson-omon, sog‘- salomat	[pə salāmatəy sara]	په سلامتۍ سره
shavqatsizlarcha	[pə berahməy sara]	په بې رحمۍ سره
g‘ururlanib	[pə viyāř sara]	په وياړ سره
tartib bilan	[pə tartib sara]	په ترتيب سره
mehribonlarcha	[pə nikmərg‘əy sara]	په نیکمرغۍ سره
ayamay, rahm qilmay	[pə beāmanəy sara]	په بې امانۍ سره
e’tiborsiz	[pə beparvāyəy sara]	په بې پروايۍ سره
puxta, sinchiklab, diqqat bilan	[pə diqqat sara]	په دقت سره
indamay, jim	[pə xāmushəy sara]	په خاموشي سره
tezlik bilan, tezda	[pə sur‘at sara]	په سرعت سره
qiyinchilik bilan	[pə saxtəy sara]	په سختۍ سره

Misollar:

د هغې ورځې په ما بڼام د خپل پلار د ساتونکو له نظره ليرې او په پټه توگه يې ځان د شهزاده څنگ ته ورساوه او هغه ته يې يو خنجر ورکړ. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[də hag‘e vradze pə māshām də xpəl plār də sātunko lə nazara lire aw pə pəṭa toga ye dzān də shahzāda tsang ta vurasāva aw hag‘ə ta ye yav xanjar varkər]

O‘sha kuni kechqurun u otasining soqchilari nazaridan uzoqlashdi va yashirinchā shaxzodaning yoniga bordi va unga bir xanjar berdi.

په داسې ځال کې چې کښتۍ د کریت په لور په حرکت کې وه، هغه د سمندر اوبو ته په ځیر سره

کتل. (د رښتینۍ بوتېبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[pə dāsi xāl ke che kshtəy də krit pə lor pə harakat ke va, hag‘ə də samandar obo ta pə dzer sara katəl]

Kema Krit tomon harakatlanayotganda, u dengiz suviga zimdan qaradi

میناس په خندا سره وویل: د آتن د پاچا زوی غواړي چې په خپله ځان د مرګ کومي ته وسپاري.
ډیره بڼه ده، زه به سبا تا د ځناور څنګ ته یوسم. (د رېښتینۍ بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[Minos pə xanā sara vuvoyəl: də ātən də pāchā zoy g'vāri che pə xpəla dzān
də mærg kome ta vuspāri. d'era sha da zə bə sabā tā də dzanāvar tsang ta yusəm]

*Minos kulimsirab dedi: Yunon shohining o'g'li o'z jonini jalodga topshirishni
xohlayapti. Juda yaxshi, men seni ertaga hayvon oldiga olib boraman.*

د مار بچي په خاموشۍ سره ورته کتلې او د خپلې مور خبرې یې ور په یادې شوې او له ځانه سره
وویل: که چیرې هغه ماته نژدې شي زه به پرې حمله وکړم او هغه به وخورم. (د رېښتینۍ بوټبه. همایون
هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[də mār bache pə xāmushəy sara vərta katəle aw də xpəle mor xabare ye var
yāde shəve aw lə dzāna sara vuvayəl: Ka chiri hag'ə mātā nægde shi zə bə pre
hamla vukəřəm aw hag'ə bə vuxurəm]

*Ilonning bolasi indamay unga qaradi va onasining gaplari yodiga tushdi va
o'ziga-o'zi dedi: "Agar u menga yaqinlashsa, men unga hamla qilaman va uni
yeyman."*

وروسته بیا په سرعت سره له هغه ځایه لاړه. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور.
کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[vrusta biyā pə sur'at sara lə hag'ə dzāya lāra]

Shundan so'ng u bu joydan tezda ketdi.

دواړه په حوشالۍ سره د خپلو کورونو په لور رهي شول. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین
افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[dvāřə pə hushāləy sara də xpəlo koruno pə lor rahi shvəl]

Ikkalasi xursand holda o'z uylari tomon yo'l olishdi.

مانویل په ویاړ سره وویل: هو! دا ما دلته موندلی دی. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان
پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[Manuyel pə viyāř sara vuvoyəl: Ho! Dā mā dēlta mundəlay day]

Manuyel g'ururlanib dedi: Ha! Buni bu yerdan men topganman.

سر بیرې پر دی چې زه د پلار دفتر ته تللم نو د هغه د دفتر ملګرو به هم په تریو تندي سره راته کتل.
(خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[sar bera pər day che zə də plār daftar ta tlələm no də hag‘ə də daftar məlgro bə ham pə triv tanday sara rata katəl]

Men otamning ishxonasiga borib turishimga qaramasdan, uning ishxonasidagi do‘stlari menga zimdan qarashardi.

دا وخت يې په احتياط سره د خپل ماشين گير بدل کړ. (خاوره). (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[dā vaxt ye pə ehtiyāt sara də xpəl māshin ger badəl kər]

Bu vaqtda u mashinasining moyini ehtiyotkorona almashtirdi.

او بيا چي د وروستي بنامارداري هم ووتلي او د سره بادبانلرونکي بيړي د نجات ساحل ته را نژدي شوه او ورسيدله مانوگانو په گډه سره دا سندره بلله چي: (خاوره). (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[aw biyā də vrustay shāmārdāri ham vuvatəlay aw də sərə bādbānlarunkay beṛay də najot sāhil ta rā nəgde shvə aw vurasedəla mānugāno pə gad’a sara dā sandra baləla che]

So‘ngi ajdarho shamoli ham chiqdi va qizil yelkanli kema najot sohiliga yaqinlashdi va yetib kelganidan so‘ng dengizchilar bu qo‘shiqni birgalashib kuylashdi...

د هغي په لاره كي يو بي وزلي سپي غځيدلي و او خان يې په سختي سره خاوه . هغه په سختي سره سا کښله او ستوني يې د تندي له لاسه بلکل وچ شوي و. (د رښتيني بوټبه. همايون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[də hag‘e pə lāra ke yav bevazle spay g‘adzedəlay vu av dzan ye pə saxtəy sara tsxāvə. hag‘ə pə saxtəy sara sā kshəla aw stunay ye də tande lə lāsa bilkul vuch shvay vu]

Uning yo‘lida bir bechora it cho‘zilib yotar va qiynalib harakat qilardi. U qiyinchilik bilan nafas olar va tomog‘i suvsizlikdan butkul qurigan edi.

هغي په سختي سره گام پورته کاوه او کله کله هم لاندي ښوېدله. (خاوره). (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[hag‘e pə saxtəy sara gām porta kāva aw kəla kəla ham lānde xovedəla]

U yuqoriga qiyinchilik bilan ko‘tarilar va ba‘zan pastga qarardi.

جلگی جامگی په احتیاط سره د ابو څاڅکو ته ونيو چې ډک شي. (خاوره. د لنډو کیسو مجموعه).
امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[jəlgay jāmgay pə ehtiyāt sara də obo tsātsəko ta vuniv che d'ak shi]
Qizcha cho 'michni to 'lg'azish uchun ehtiyotkorlik bilan suv tomchilariga tutdi.

هغه په خورا شوق سره اوبه وڅښلې او د هغه حالت ډېر ښه شو. (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک.
کابل. ۲۰۰۹ م)

[hag'a pə xvarā shavq sara obə vutxəle av də hag'ə hālat d'er sha shu.]
U juda zavqlanib suv ichdi va uning ahvoli juda tez yaxshilandi.
جلگی دروازه خلاصه کړه او په تیزی سره کور ته ننوته. (خاوره. د لنډو کیسو مجموعه). امین
افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[Jalgəy darvāza xlāsa kəra av pə tezəy sara kor ta nənavuta]
Qizcha darvozani ochdi va tezda uyga kirdi.
هغه د خپل مور په فکر کې شوه او په تلوار سره د کور په لور روانه شوه. (خاوره. د لنډو کیسو
مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[hag'a də xpəl mor pə fikr ke shva av pə talvār sara də kor pə lor ravāna shva.]

U onasi haqida o'yladi va shoshilgancha uyi tomon yurdi.
زړې ژرندې په کرنجهار سره ځواب ورکړ: هو! ولې مې نه دي لیدلي. (د رښتیني بوټبه. همایون
هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[zřejərande pə karanjahār sara dzavāb varkəř: ho! Vale mi na de lidəli]
Qari tegirmon gichirlab javob berdi: Ey! Sen nimaga meni ko 'rmayapsan.
نجلۍ په خوشالۍ سره نارې وهلې: داسې ښکاري چې زه د آسمان ستورو ته ورنژدې کېرم! (د
رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[ənjələy pə xushāləy sara nāre vahəle: dāsi shkāre che zə də storo ta var nəgde kegəm]

Qizcha xursand holda baqirdi: Men osmon yulduzlariga yaqinlashgan ko 'rinaman.

په مهربانۍ سره یې له بوټبه څخه وپوښتل: ای بوټبه، ستا ستونزه څه ده؟ (د رښتیني بوټبه. همایون
هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[pə mehribanəy sara ye lə buṭba tsxa vupoxṭəl: Ey buṭba, stā stunza tsə da?]

U o 'tinchidan mehribonlik bilan so 'radi: Ey o 'tinchi! Nima tashvishing bor?

پلار يې په وار خطايي سره خپل کار پرېښود او خپل شاو خوا ته يې وکتل، خو څوک يې و نه ليد.
(خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[plār ye pə vārxatāyəy sara xpəl kār pəreshod aw xpəl shāv xvā ta ye vukatəl,
xo tsok ye vu na lid]

*Otasi hadiksirab o 'z ishini to 'xtatdi va yon atrofiga qaradi, ammo biror kishi
ko 'rinmadi.*

په آهستگي سره د خپلو وزرونو په شورولو سره د شنو و اېښو د پاسه کيناستل ترڅو دهغه خبرو ته
غوږ ونيسي. (د رېښتيني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[pə āhistagəy sara də xpəlo vazaruno pə shoravəlo sara də shəno vāxo də pāsa
kināstəl tər tso də hag'ə xabaro ta g'vag vunisi]

*Uning gaplariga quloq solish uchun o 'z qanotlarini ohista silkitgancha
yashil o 't ustiga qo 'nishdi.*

هغوی یوه لویه طعامخانه جوړه کړه ترڅو ټول هلکان په گډه سره هلته ږدی و خوري. (خاوره. د)
لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[hag'oy yava loya taomxāna joṛa kəra tər tso ṭol halkān pə gada sara halta
d'od'əy vuxori]

*Ular barcha bolalar ovqatni birga yeyishsin deb, bir katta ovqatlanish
xonasini qurishdi.*

تاسي ته يې شکلي او رنگا رنگ وزرونه درېځنېلې دي ترڅو په آساني سره په هوا کي والوځي.
(خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[tāsi ta ye shəkle aw rangā rang vazaruna dar baxshəli di tər tso pə āsānəy sara
pə havā ke vālvudzi]

Havoda oson uchsin deb, u sizlarga chiroyli va rang-barang qanotlar bergan.

له دې کبله چې د بوډی ټال لوړوالی درلود، نو هغې نشو کولای چې په آساني سره پورته شي. د)
رېښتيني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[lə de kabala che də budəy ṭāl lvaṛvālay darlod, no hag'e nashu kavəlāy che
pə āsānəy sara porta shi]

Kamalakning tepadaligi sababli u osonlikcha ko 'tarila olmadi.

سړي په غلا سره د غنمو په لو پيل وکړ. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[sařay pə g'ālā sara də g'anəmo pə lav payil vukəř]

Kishi o'g'rincha bug'doy o'rishni boshladi.

پلار يې ودرید او خپلو څلورو خواوو ته يې په غور سره وکتل. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[plār ye vudared aw xpəlo tsaloro xvāvo ta ye pə g'aur sara vukatəl]

Otasi to'xtadi va to'rt tomoniga zimdan qaradi.

وروسته بيا يوي ښاپيری د نجلی له لاسه ونيه او وې ويل: که چيرې ته په رښتيا سره د ستورو د ليدلو قصد لري، بايد وړاندې لاره شي. (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[vrusta biyā yave shāperəy də ənjələy lə lāsa veni aw ve vayəl: ka cheri tə pə rəxtiyā sara də storo də lidəlo qasd lare, bāyad vřānde lāřa shi]

Shundan keyin bir pari qizchaning qo'lidan ushladi va shunday dedi: "Agar rostdan yulduzni ko'rish niyating bo'lsa, oldinga qarab yurushing kerak."

کله چی هغې تيارې ته په ځير سره وکتل نور يې نشو کولای چې ځمکه وگوري. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[kəla che hag'e tiyāre ta pə dzer sara vukatəl nor ye nashu kavəlāy che dzməka vugori]

U qorong'u tomonga tikilib qaraganda yerni ko'ra olmadi.

په ونې باندې د تبر د لگیدو انگازې به د ځنگل گرچاپيره دومره په زور سره خورې کيدې چې تا به ويل څو تنه بوټبه گان لگيا دي او لرگي ماتوي. (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[pə vəne bānde də tabar də lagedo angāze bə də dzamgal gərchāpera domra pə zor sara xore kede che tā bə vayəl tso tana buřbagān lagiyā di aw largi mātavi]

O'rmon bo'ylab daraxtga urilgan boltaning ovozi kuchli tarqalardi.

بوټبه په ځير سره تبر ته وکتل او وې ويل: نه، دا تبر له سرو زرو څخه جوړ شوی دی او ډېر قيمتي دی. دا زما تبر نه دی. (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[Buřba pə dzer sara tabar ta vukatəl aw ve vayəl: na, dā tabar lə sro zoro tsxa joř shvay day aw d'er qiymati day. Dā zmā tabar na day]

O'tinchi zimdan boltaga qaradi va dedi: "Yo'q, bu bolta oltindan qilingan va juda qimmat. Bu mening boltam emas."

هغه په ژړا سره وويل: دا مې څه وکړل؟ خوارکې باز زما ژوند وژ غوره! (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[hag'ə pə jaŋa sara vuvayəl: dā me tsə vukəŋəl? xvārgay bāz zmā jvand vujg'orə!]

U yig'lamsirab dedi: men nima ish qib qo'ydim? Bechora lochin meni hayotimni saqladiku!

تشيرا خپله ککره وښوروله او په خندا سره يې وويل: نه، زه اتله نه يم. نن زما د مرستي رسولو وار و. ما يوازي خپله ذمه واري تر سره کړه. (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[tesherā xpəla kakəra vushoravəla aw pə xandā sara ye vuvayəl: na, zə atala na yem. Nən zmā də mrəste rasavəlo vār vu. Mā yavazi xpəla zimmavāri tər sara kəra]

Teshero boshini silkitib kulimsirab dedi: Yo'q, men qahramon emasman. Bugun mening yordam berish navbatim. Men faqat o'z zimmamdagi vazifani bajardim.

پلار يې په غوسې سره پرې آواز کړ: جورج! آیا ته پوهیږي چې د آلبالو نیالگي چا مات کړی دی؟ (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[plār ye pə g'use sara pəre āvaz kəŋ: Jorj! āyā tə pohegi che də ālubālo niyālgay chā māt kəāy day?]

Otasi g'azablanib unga baqirdi: "Jorj! Sen olcha niholini kim sindirganini bilmaysanmi?"

وروسته بیا په تیزی سره د ښار په لور رهي شو. (خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[vrusta biyā pə tezəy sara də shār pə lor rahi shu]

Shundan so'ng shahar tomon tezda ravona bo'ldi.

د هغې جورج ته پام نه و چې په چابکي سره هغې خوا ته روان و. (د رښتیني بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[də hag'e Jorj ta pām na vu che pə chābukəy sara hag'e xvā ta ravān vu]

U Jorjni payqamadi va Jorj tezda u tomonga yugurdi.

کله چې خلکو ولیدل جورج او شهزادګۍ په سلامتۍ سره بیرته ستانه شوي دي او ښامار له منځه تللی دی، د ښار دروازه یې په خوشالۍ او ولولو سره پرانسته. (د رښتینۍ بوټبه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[kəla che xaləko aw shahzādāgəy pə salāmatəy sara berta stāna shvi di aw shāmār lə myandza tləlay day, də shār darvāza ye pə xushāləy aw vulvalo sara pərānistā]

Xalq Jorj va malikaning sog‘-salomat ortga qaytganini va ajdarhoning yakson qilinganini ko‘rganda, shahar darvozasini xushchaqchaq va xursand holda ochdi.

o ډلډ va توګه ort ko‘makchisi orqali ham ravish yasaladi. Bu model kammahsul hisoblanadi.

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
to‘xtovsiz, to‘xtovsiz ravishda	[pə pərləpase toga]	په پر له پسې توګه
to‘ppa to‘g‘ri	[pə mustaqima toga]	په مستقیمه توګه
xotirjam, tinch	[pə d‘ad‘məna toga]	په ډاډمنه توګه
yashirinchā	[pə pət‘a toga]	په پټه توګه
shiddatli	[pə g‘amjəna toga]	په غمجنه توګه
yaxshi tarzda	[pə sha toga]	په ښه توګه
yolg‘iz	[pə yavāzi toga]	په یوازې توګه
g‘azablanib	[pə qahrjəna toga]	په قهرجنه توګه
to‘g‘ri	[pə shafofa toga]	په شفاهه توګه

Misollar:

له دې کار سره ماشین په غمجنه توګه وچونیده او لاپسې ګرندۍ شو. (خاوره. (د لنډو کیسو

مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[lə de kār sara māshin pə g‘amjəna toga vuchunidə aw lāpase gəřanday shu.]

Bu ishdan keyin mashina shiddatli yurib ketdi va birdaniga tezlashdi.

هوا په پر له پسې توګه سړېدله. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

(ش.)

[havā pərləpase toga saředəla]

Havo to 'xtovsiz ravishda sovir edi.

هغه د يوه ستوري د نيولو په نيت په يوازې توگه له کړکې څخه ووته او روانه شوه. (د رښتینۍ بڼه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[hag'e də yava stori də nivəlo pə niyat pə yavāzi toga lə kərkəy tsxa vuvuta
aw ravāna shva]

U yulduzni ushlahsh niyatida derazadan yolg 'iz chiqdi va yo 'lga ravona bo 'ldi.

د جورج رنگ تک سپین اوښتی و ، خو هغه په مستقیمه توگه خپل پلار لور ته کتل. (د رښتینۍ بڼه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[də jorj rang tək spin uxtay vu, xo hag'ə pə mustaqima toga xpəl plār lor ta
katəl]

Jorjning rangi oqarib ketdi, ammo u otasi tomonga to 'ppa-to 'g'ri qaradi.

واړه ماشومان هلته نشو کولای په ډاډمنه توگه لوبې وکړي. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[vāřə māshumān halta nashu kavəlay pə d'ād'məna toga lobe vukři]

Yosh bolalar u yerda xotirjam o 'ynay olishmaydi.

هغه په يوازې توگه له دروازې څخه ووته. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[hag'ə pə yavāzi toga lə darvāze tsxa vuvuta]

U darvozadan yolg 'iz chiqdi.

جورج یو لوی ښامار ولید چې تاوېږي را تاوېږي او په هیبتناکه توگه له اوبو څخه پورته کیږي. (د رښتینۍ بڼه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[Jorj yav loy shāmār vulid che tāvegi rā tāvegi aw pə haybatnāka toga lə obo
tsxa porta kegi]

*Jorj bir katta ajdarhoni suvdan buralib qo 'rqinchli chiqib kelayotganini
ko 'rdi.*

دوی تر اودسه پوري د اتخاذباتو په پروسه کې خپله ونډه په ښه توگه تر سره کړي. (د رښتینۍ بڼه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م)

[duy tər osa puri də intixābāto pə parosa ke xpəla vand'a pə sha toga tər sara
kři]

Ular hozirgacha saylov o'tkazishdagi o'z hissalarini yaxshi tarzda amalga oshiryapti.

دا ډيره مهمه ده چې دغه انتخابات په شفافه توگه تر سره شي.

[dā d'era muhima da che dag'a intixābāt pə shafofa toga tər sara shi]

Bu saylovning to'g'ri o'tkazilishi juda muhumdir.

آسمان چې تورو وړیځو پوښلی و په قهرجنه توگه پر له پسې غږمبیده. (خاوره. (د لنډو کیسو

مجموعه). امین افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[āsmān che toro vredzo poshle vu pə qahrjəna toga pər lə pase g'əřumbedə]

Qora bulutlarga to'lgan osmon qahrlanib to'xtovsiz gumbirlardi.

په ورته وخت کې د ساینس او ټکنالوژۍ مرکز مشر ژمنه وکړه چې د دې مرکز له اسانتیاوو نه به

په سمه توگه کار واخیستل شي. ()

[pə vərta vaxt ke də sāyans aw tiknālojəy markaz mshər jaməna vukra che dade markaz lə āsantiyuna bə pə sama toga kār vaxistəl shi]

Hozirgi vaqtda ilmiy va tixnologik markazning boshlig'i qulayliklardan to'g'ri holda foydalanishga va'da berdi.

old va [pə] ډول [d'aul] ort ko'makchisi orqali ham ravish yasaladi. Bu model **ravish** = ډول + ot, sifat + ډول ham kammahsul hisoblanadi.

o'zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
batafsil	[pə mufassal d'aul]	په مفصل ډول
ayniqsa, xususan, maxsus	[pə xās d'aul]	په خاص ډول
erkin	[pə āzadāna d'aul]	په آزادانه ډول
toza, tozalab	[pə xālis d'aul]	په خالص ډول
vaqtincha	[pə muvoqati d'aul]	په موقتي ډول
ochiq, ravshan	[pə vāzih d'aul]	په واضح ډول
erkin	[pə āzadāna d'aul]	په آزادانه ډول

Misollar:

واړه ماشومان هلته نشو کولای په آزادانه ډول لوبې وکړي. (خاوره. (د لنډو کیسو مجموعه). امین

افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.)

[vāřə māshumān halta nashu kavēlāy pə āzadāna d'aul lobe vukři]

Yosh bolalar u yerda erkin o‘ynay olishmaydi.

پرون په مرکه کې د انتخابات په باره په مفصل ډول خبرې کړ.

[parun pə maraka ke də intihābāt pə bāra pə mufassal d’aul xabari kər]

Kecha u suhbatda saylov haqida batafsil gapirib o‘tdi.

2.5. Ravish yasalishining (konversiya) semantik usuli

Bir turkumdan boshqa turkumga so‘z ko‘chishi yordamida so‘z yasalishi (semantik usul) orqali ravish yasaladi. Ba’zi ot va sifatlar ham predlogsiz ravish o‘rnida ishlatiladi¹⁰.

o‘zbekchasi	transkripsiyasi	pushtuchasi
kechasi	[parun]	پرون
to‘g‘ri	[sam]	سم
ertalab	[sabā]	سبا
qattiq	[klak, ʈing]	کلک، ټینگ
yumshoq, mayin	[post, narm]	پوست، نرم
yomon	[bad]	بد
yaxshi	[sha]	بڼه
indamay	[g‘əlay]	غلی

پرون له ما نه پټ ولاړ. (صدیق الله رشتین، ژب بنودنه، کابل، ۱۳۶۱)

[parun lə mā na pəʈ vlāř]

Kechasi u mendan yashirinha ketdi.

Mazkur tadqiqot bobiga qisqa xulosalar o‘rnida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Pushtu tilida ravish affiksatsiya, kompozitsiya, reduplikatsiya, konversiya hamda old va ort ko‘makchilar orqali yasaladi.
2. Boshqa tillarda uchramaydigan holatni kuzatishimiz mumkin, ya’ni ravish old va ort ko‘makchilar bilan yasalganda, ot birlikda vositali kelishikda turadi.

¹⁰ Калинина З.М. Очерки лексикологии современного пушту.- М, 1972.

3. Pushtu tilidagi mavjud rod kategoriyasi ravish yasashiga ta'sir qiladi.
4. Ravish yasashining affiksatsiya usulida sifat + انه = ravish, ot + انه = ravish, yasama sifat + انه = ravish modeli ot, sifat + بي va ot, sifat + نا modellari, reduplikatsiya usulida ot + ot modeli, olmosh + olmosh=ravish va ot + په + ot = ravish modellari, kompozitsiya usulida hech+ot=ravish, hech + so'roq olmoshlari = ravish, har + ot = ravish, bir soni + ot = ravish, sifat + ot = ravish modeli va hozirgi zamon sifatdoshi + ot = ravish, بل [bəl] + ot = ravish modellari, old va ort ko'makchilar bilan ravish yasashda سره + ot (abstrak ot) + په va sifat+ په va ot + په modellari aniqlandi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, yuqorida biz keltirib o'tgan bitiruv malakaviy ishi ravishlarning yasashi mavzusini mukammal va to'liq tarzda yoritib berolmaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

1. Pushtu tilida ravish mustaqil so'z turkumidir.
 2. Pushtu tilida ravishlarni semantik jihatdan holat, payt, o'rin, daraja-miqdor va sabab ravishlariga ajratiladi.
 3. Pushtu tilida ravish daraja kategoriyasiga ega.
 4. Pushtu tilida ravishlar so'z yasashning quyidagi usullarida: affiksatsiya, kompozitsiya, reduplikatsiya, konversiya hamda old va ort ko'makchilar orqali yasaladi. Tadqiqot davomida mazkur usullar ishtirokidagi 16 ta model aniqlandi.
 5. Ko'rsatilgan so'z yasash usullaridan pushtu tilida ravish yasashida eng mahsuldor usullar: kompozitsiya, reduplikatsiya hamda old va ort ko'makchilar bilan ravish yasashidir. Kompozitsiya usulida har + ot = ravish va sifat + ot = ravish, reduplikatsiya usulida ot + په + ot = ravish modeli, old va ort ko'makchilar bilan ravish yasashda سره + ot (abstrak ot) + په modeli, sifat+ په va ot + په modellari mahsuldorligi aniqlandi.
- Yuqorida keltirilgan ravishlarning ko'pchiligi kundalik turmushda keng ishlatiladi.
6. Yasashda miqdor jihatdan holat ravishlari birinchi o'rinda turadi. Holat ravishlarining yasashida redublikatsiya hamda old va ort ko'makchilar bilan ravish yasash usullari mahsuldor hisoblanadi.
 7. Payt ravishlari yasashida kompozitsiya usuli mahsuldorligi jihatdan yuqori turadi.
 8. Pushtu tilida ravish yasashida tilning o'ziga xos xususiyati ko'rinadi. Rod kategoriyasining ravish yasashidagi ta'siri, ayniqsa, kompozitsiya usuli bilan yasalgan payt ravishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.
 9. Shuningdek, old va ort ko'makchilar bilan ravish yasalganda so'z yasash asosi vositali kelishikda ishlatiladi. Bunda so'z yasash asosi vazifasini

bajarayotgan ot ko‘plik shaklda yozilsa ham, tarjima qilinganda ot birlikda tarjima qilinadi.

10. Pushtu tilidagi ravishlar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda ba’zilar ravishdosh shaklda tarjima qilinadi, lekin bu pushtu tilida ravish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbek tilidagi manbalar:

1. Karimov I.A. Ilm-ziyo salohiyati-nutq boyligi. Ma'rifat gazetasi. 1993.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.- 185-b.
3. Mannonov A.M., Quronbekov A. Pushtu tili leksikalogiyasi.-Toshkent, 2012.
4. O'zbek tili grammatikasi 1- tom. T., "Fan", 1975.612-bet
5. Sayfullayeva R., Mengaliyev B.va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009.
6. Normatov Z. Ma'ruzalar matni. 2010-2011.
7. G'ulomov A., Asqarov M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'qtuvchi, 1985. – 315-bet
8. Hamroyeva M. A. O'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1999.

Rus va ingliz tilidagi manbalar:

1. Калинина З. М. Очерки лексикологии современного пушту. - М., 1972.
2. Сикоев Р.Р. Именное словообразование в современном литературном пушту.- М., 1967.
3. Лебедев К.А. Грамматика языка пушту.- Москва., 1956-й
4. Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто). Ленинград, 1987.
5. Лебедев К.А. Афганистан: язык, литература, этнография.-М., 2003.
6. Penzl H. A Grammar of Pashto. Washington., 1955.
7. Яцевич Л.С., Терепко О.С. Учебник языка пушту. Москва., 2001.
8. Асланов М.Г. Пушту-русский словарь.-Москва., 1985.

Badiy adabiyotlar ro'yxati:

1. د رښتيني بوتېه. همایون هوتک. کابل. ۲۰۰۹ م.
2. خاوره. (د لنډو کيسو مجموعه). امين افغان پور. کابل. ۱۳۲۲ ه. ش.
3. د مور مينه. نصر احمد احمدي. کابل. ۲۰۰۶